



**G'AFUR G'ULOM IJODIDAGI QARINDOSHLIKNI IFODALOVCHI
POETIZMLAR**

N.A.Muminova

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti

Sh.R.Hamroyeva

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti O'zbek tili
va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'afur G'ulom ijodida qarindoshlikni ifodalovchi poetizmlarga doir so'zlarning mohiyati haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: poetizm, leksika, nutq, poetik so'zlar.

G'afur G'ulom poetik leksikasi tarkibida og'a, ini, jondosh, qondosh, qarindosh, tug'ishqon, jeka, jekgay, singil kabi lug'aviy birliklar yuqori poetiklik darajasi bilan ajralib turadi.

Mazkur poetik so'zlarni uchga bo'lish mumkin:

- 1.Sof poetik so'zlar: jondosh, qondosh, aka, tug'ishqon;
- 2.Poetik nutq, jarayonida uslubiy qimmat kasb etuvchi umumnutqiy so'zlar: ini, qarindosh, singil.
- 3.She'riy nutq, jarayonida vujudga kelgan poetik iyeologizmlar: jeka:, jekgay kabi.

So'z she'riy nutq, jozibadorlik va musiqiyligini ta'minlashda asosiy vositalardan biridir. Ayniqsa, G'afur G'ulomdek otashin so'z san'atkorining tantanavor poetikasi. viqorli she'riy nutqi, ulug'vor ko'tarinkiligi va teran falsafiylikni ta'minlashda so'zlar ayricha ohang, mohiyat va qolaversa, ko'rinish kasb etadi. Shoir so'zini o'z fikr oqimida erkin qo'yadi. U bu oqim shiddatli va qudratiga mos ravishda yangi-yangi ma'no bo'yoqlar orttirib boradi, vazn talabiga muvofiq; turfa fonetik qiyofa egallaydi. Biz quyida ulardan ayrimlari xususida to'xtalamiz.



Jondosh soʻzi sof poetizmdir. U umumnutqda passiv qoʻllanishi bilan xarakterlanadi. Aslida bu soʻz bir jondan yoyilgan qarindoshlikni anglatuvchi soʻz sifatida tilda paydo boʻlgan boʻlsa-da, toʻla poetiklik kasb etib, «bugun xayotiy manfaatlari, fikri-zikri bir boʻlgan, yaqdil hamnafas» emotsional mazmuniga ega boʻldi. Soʻz Gʻafur Gʻulom nutqida esa tantanavor poetik aniqlovchi maqomini oldi:

Bir ulugʻvor yoshga kirgan

Koʻrkam boʻying muborak,

Jondosh qozoq shon-sharafing,

Obroʻying muborak.

Albatta, ifoda bir ulkan chinorning “oʻsiq shoxlari” boʻlmish oʻzbagu qozoqning tub ildizi yagonaligiga ishora. Mazkur soʻzning epitet sifatida qoʻllanilishiga asos boʻlgan. Bu “semik poydevor” Siz soʻzni shoir nazarida tutgan poetik maqsadga boʻysoʻndirish imkoni yoʻq.

Demak, jondosh soʻzidagi “joni bir” maʼnosi poetik metafora natijasi boʻlsa-da, shoir “hukmi” bilan undagi bu xossa maʼlum darajada kuchsizlantirilgan.

Qondosh soʻzida qarindoshlik, aniqrogʻi, “qoni bir”lik yaqqol seziladi. Shu boisdan u qarindosh soʻzi bilan boʻyoqdorligi darajalangan maʼnodoshlik qatorini hosil qiladi. Soʻzlar oʻz maʼnolarida ham, koʻchma maʼnolarda ham maʼnodoshligini saqlab qoladi, biroq har ikkala soʻz ham jondosh soʻziga poetik maʼnodoshlik munosabatida boʻladi.

Qondosh poetizmi umumnutqda “bir ota-onadan tugʻilgan, bir avlodga mansub (qoni bir)” maʼnoviy mohiyati bilan yashaydi. Biroq, shoir nutqida poetizm sifatida ushbu denotativ semalardan birortasini ham saqlamaydi. Balki u denotativ semalar zahiridagi “ahillik”, “inoqlik”, “mehribonlik” kabi ifoda semalarini kuchaytirgan holda yuzaga chiqadi:

Ming yillar bor tutqazmas,

Qondoshlik tariximiz.

Ikki boshga bir manglayday

Yarqiroq taqdirimiz



Ko‘rinadiki, baytda so‘z “jonajon, aziz, mehribon” poetik mohiyatiga ega. Shoir she‘riy matn silsilasida fikriy izchillik ifodasiga qat‘iy rioya qiladi. Qarindoshlikni anglatish-anglatmasligi belgisiga betaraf bo‘lgan jondosh so‘zi she‘r avvalida qo‘llanilgan bo‘lsa, silsilaning keyingi bo‘g‘inida qondosh so‘zi ixtiyor etiladi.

Ma‘lumki, har qanday ibtido yakunni kutadi. Yakuni esa mukammallashgan ibtidor. Shoir buning uchun “tuvisqon” (tug‘ilgan) so‘ziga ehtiyoj sezadi. Alaloqibat, poetik jaranglik meyoriga yetadi. Bu so‘zda jondosh, sondosh ifodalangan ifodalaridan tilangan murod bir necha qavat. Unda qarindoshlikning poetik ifodasi bir bahya balanddir. Og‘a-inilik – jondosh-qondosh-tuvisqon gradual qatorida kuchayib boradi. Poetizmlarning bu tarzdagi joylashuvi nafaqat lirik qahramon kechinmalari tadrijiyotini, balki fikr kamolini, matn yaxlitligini ta‘minlovchi omoch vazifasini ham o‘tagan.

G‘afur G‘ulom she‘riy nutqi erkin fikr oqimiga monand tantanavorlik va jozibadorlikni poetizmlar) tanlanishi va qo‘llanishiga san‘atkorona uyg‘unlashtirib yuborish bilan alohida ajralib turadi. Buni biz uning birgina qarindoshlik poetizmlarni qo‘llash mahorati asosida ko‘rsatishga urindik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘afur G‘ulom. Eng sara she‘rlar to‘plami,
2. Mamajonov S. Shoir va zamonaviylik. Toshkent, 1966.
3. Nazarov B. G‘afur G‘ulom zamondoshlari xotirasida. Toshkent, 2003.
4. Matyoqubova T. G‘afur G‘ulom badiiyati. – T: Fan va texnologiya, 2006.